



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№2(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,  
2-fevral, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi"  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari .....	22
<b>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</b>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida .....	26
<b>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</b>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<b>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</b>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<b>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish .....	37
<b>Nusharov Bobir Bolbekovich</b>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя .....	41
<b>Олимова Азиза Кахрамоновна</b>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari .....	47
<b>Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi</b>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<b>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</b>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari .....	54
<b>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi .....	59
<b>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli .....	64
<b>Botirova Lobar Kamolovna</b>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<b>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish .....	73
<b>Ergasheva Nigora Erkinovna</b>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects .....	76
<b>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</b>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<b>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</b>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni .....	85
<b>Baxramova O'ramol Uralovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<b>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</b>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari .....	92
<b>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</b>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli .....	96
<b>Ergasheva Mehriyona</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<b>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</b>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies .....	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili .....	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi .....	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations .....	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling .....	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish .....	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni .....	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni .....	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish .....	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari .....	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri .....	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari .....	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini .....	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi .....	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari .....	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	200
<a href="#">Jabborova Salomat Abdijalilovna</a>	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
<a href="#">Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna</a>	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish .....	208
<a href="#">Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi</a>	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi .....	213
<a href="#">Raximova Xurshidaxon Sadikovna</a>	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari .....	217
<a href="#">Xalikova Nargiza Abduvaliyevna</a>	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari .....	221
<a href="#">Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
<a href="#">Zayirkulova Nozima Ilyas qizi</a>	

# BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY- METODIK TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING TARIXIY PEDAGOGIK ILDIZLARI

**Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna**

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrası PhD, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi zamonda dolzarb hisoblangan masala – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy-pedagogik ildizlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** differensial, tarixiy-nazariy, metodik yondashuv, optimizatsiya, kompetensiya, metodologik, temperament, individual, kontrast, kasbiy-metodik, rivojlanish.

**Abstract:** This article examines the актуальная problem of the historical and pedagogical roots of professional-methodological training of future fine arts teachers based on a differentiated approach.

**Key words:** differentiated, historical-theoretical, methodological approach, optimization, competence, methodological, temperament, individual, contrast, professional-methodological, development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается актуальная проблема историко-педагогических корней профессионально-методической подготовки будущих преподавателей изобразительного искусства на основе дифференцированного подхода.

**Ключевые слова:** дифференцированный, историко-теоретический, методологический подход, оптимизация, компетентность, темперамент, индивидуальный, контраст, профессионально-методический, развитие.

## KIRISH

O'zbek xalqi o'zining tasviriy, amaliy, me'morchilik san'ati bo'yicha boy tarixga ega. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, o'lkamiz rassom va xattotlarini dunyoga tanitish va turizm masalasi: “Bu maskanga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o'zida... Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlarning bebaho merosidan namunalar, ular tavallud topgan va faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaharlar manzaralari turli noyob eksponatlar orqali aks ettiriladi”, deya ta'kidlaydi. Chunki O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Xalchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajinatepa, Teshikqal'a [2 - 30-b.] kabi joylarda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida aniqlangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda jahonga mashhur allomalarning rasm-chizmalari bilan tanishmoqlari darkorligi haqidagi konsepsiyasi zamonaviy badiiy-estetik ta'limning tarixiy pedagogik ildizlarining muhim komponentlaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev kabi olim va yozuvchilar, shoirlar, sayyohlarning faoliyatida kasb o'rganish va o'rgatishning metodik asoslariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.



Fransuz faylasufi Didro: “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarida har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi”<sup>[3-152 b.]</sup>, – degan edi. Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san‘at turlaridan me‘morchilik, miniatyura gullab-yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san‘atiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Natijada Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda estetik saviyasiga ko‘ra yuksak darajadagi miniatyura san‘ati namunalari yaratildi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlar o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san‘at maktablari an‘analari asosida yaratilgan.

Ma‘lumki, san‘at bir necha avlodning ko‘p yillar davomida shakllangan an‘analari, ustozning shogirdga bergan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi<sup>[2-31 b.]</sup>. Bu esa umumiy tarzda qat‘iy tizim negizidagi badiiy ta‘lim yo‘nalishida bo‘lmasa-da, badiiy yo‘nalishdagi ta‘lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tasviriy va amaliy san‘at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzod kabi mashhur musavvir, naqqosh, xattot va boshqa badiiy kasb sohiblarining boy ijodiy merosini xalqimizga to‘la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yurtimizda tasviriy va amaliy san‘at dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-son‘li Qarori qabul qilindi.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb vazifalar bevosita oliy badiiy pedagogik ta‘lim, xususan, bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan ta‘limiy jarayonga qadimiy badiiy kasbiy an‘analarni zamonaviy ta‘limiy tendensiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Shu ma‘noda bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida takomillashtirish istiqbolini belgilashning ilmiy asoslangan metodik tizimini ishlab chiqish uchun real holatini maqsadli o‘rganish va tahlil qilish bugungi kun uchun badiiy pedagogika fani dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Differensial ta‘lim muammosi pedagog-rassom va psixolog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo‘lib, unga turlicha ta‘rif berilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san‘at turlaridan me‘morchilik, miniatyura gullab-yashnadi. Bu davrda miniatyura va kitob grafikasi shunchalik rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san‘atiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Natijada Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi. Bu davrlarda yaratilgan asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san‘at maktablarisiz yaratish mumkin emas.

Ma‘lumki, san‘at bir necha avlodning ko‘p yillar davomida shakllangan an‘analari, ustozning shogirdga o‘tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi [Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. T.: 2012, Nizomiy nom. TDPU. Metodik tavsianoma. - 210 b.]. Bu esa ustoz-shogird an‘analari rivojlanganligidan dalolat beradi. Tala-balarga individual yondashuvning asoslari yangi yoki yaqin 100-200 yil davomida paydo bo‘lgan jarayon emas, u kishilik jamiyati, aniqrog‘i, ibtidoiy jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlangan, desak to‘g‘riroq bo‘ladi<sup>[6: 8-9 b.]</sup>. Shunday ekan, avloddan avlodga o‘z tajribasi va bilimlarini turli yo‘llar bilan o‘tkazish jarayoni ro‘y bergan. Bu jarayon o‘sha davrlarda kundalik turmushda amalga oshirilgani hammaga ma‘lum. U mehnat, oila munosabatlari, ov, tarbiya sohalarida yoshlarning yoshi, qobiliyati, jinsi, qiziqishlari kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularga hunar o‘rgatganlar, ta‘lim va tarbiya mazmunini belgilaganlar.

Ta‘lim-tarbiyaga bunday yondashuv qadimgi Misrda, O‘rta Osiyoda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda bo‘lganligi rasmiy ma‘lumotlardan ma‘lum. Hatto uzoq qadimda o‘quvchilarning badiiy hunarlarni o‘zlashtirishi Qadimgi Gretsiyada, so‘ng bir qator Yevropa davlatlarida Uyg‘onish davrida o‘quvchilarga individual yondashuv masalasi pedagoglarning alohida e‘tiborini tortgan. Chunki u davrlarda ustozning yordamchisi va shogirdi bo‘lganligi sababli o‘quvchi-shogird ustozining badiiy asarlarni yaratishdagi texnikasi, uslubini bevosita o‘zlashtirgan. Buni Temuriylar davri miniatyura maktablari, shu davrlarda yashab, ijod etgan tasviriy san‘at ustalari va ularning shogirdlari faoliyatida ham ko‘rish mumkin.

Hirotida shakllangan san‘at maktabida hirotlik Mirak naqqosh Kamoliddin Behzodga ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o‘rgatgani haqida ma‘lumotlar bor. Shu maktabning davomchisi sifatida Kamoliddin Behzod o‘nlab musavvirlarga ustozlik qilgan, deydi professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida<sup>[7-256 b.]</sup>.

1 <https://lex.uz/docs/-4795687>

U yerda Kamoliddin Behzod o'z atrofiga o'nlab iste'dodli yoshlarni to'plagan, ularga san'atning sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mir Ali, Abdulla Sheroziy, Mirzo Amir, Mahmud Muzahhib, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Rizo Abbosiy, Shomhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xoraviy singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligi qayd etiladi. Shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom ettirib, miniatyura va xattotlik san'ati ravnaqiga hissa qo'shib, o'zlaridan keyin miniatyura maktablariga asos solib, yuzlab musavvirlar yetishib chiqishiga zamin yaratganlar.

XVII-XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san'at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Husniddin, Mulla Ortiq Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati ustoz-shogird masalasida e'tiborga molikdir. Ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlarni tarixiy manbalarga tayanib o'rganadigan bo'lsak, u davrlarda tasviriy san'atni o'qitishda rassom-ustozlarning badiiy ustaxonalarida o'quvchi-shogirdlarga ta'lim-tarbiya berish aniq belgilangan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Bu jarayonda shogirdlarni jamoa bo'lib o'qitish, ular bilan birga va yakka tartibda ishlash muhim hisoblangan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yevropada bu davrlarda ota-onasi tomonidan ma'qullangan, qobiliyatli, odatda o'n yoshga to'lgan bolalarni taniqli rassomlarga shogirdlikka berganlar, u yerda shogirdlar tasviriy san'atning sir-asrorlarini yaqin uch yil davomida o'rganishgan. Golland rassomi Rembrandtning 40 ga yaqin shogirdlari bo'lgani tadqiqotchilarga ma'lum. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Battista Alberti, Verrokko, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Albrect Dyurer, aka-uka Karrachilar yaratgan o'qitish tizimida o'quv materiallarini tez o'zlashtirish, o'quvchilarda ilmiy bilimlar asosida muntazam mashq qilish, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarini hosil qilish asosiy o'rinni egallagan. Bu tamoyillar o'sha davrda ham differensial yondashuv rivojlanganini ko'rsatadi. O'sha davrlarda ham differensial yondashuv asosida bo'lajak rassomlarni o'qitishda ustoz oddiy topshiriqlardan boshlab shogirdning qobiliyatini aniqlab, shunga muvofiq ravishda tasviriy san'at sir-asrorlarini bosqichma-bosqich o'rgatib kelganligini ko'ramiz. Shu ma'noda o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, oddiyroq ijodiy ishlar topshirilgan. Keyinchalik tajribali rassomlarning ijodiy ishlaridan nusxa ko'chirish orqali o'zlarini rivojlantirib borganlar.

Rassomlar tilida shunday yozilmagan qonun-qoidalar borki, uni so'z bilan ta'riflash qiyin bo'ladi. Masalan, rang ko'rish qobiliyati oddiy insonlar ko'rgandan ko'ra rassom uni boshqacha obrazda ko'ra oladi, ya'ni bir daraxtni oladigan bo'lsak, quyosh nuri tushib turgan tomonida issiq ranglarni, soya tomonida esa sovuq ranglarni ko'ra olishi muhim. Bu esa ustozning mahorati va o'qitish metodikasi asosida differensial yondashuvning takomillashtirilganini ko'rsatadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixdan ma'lumki, tasviriy san'atda rassom-pedagoglar o'z asarlarini yaratishda nafaqat og'zaki tushuntirib, balki o'quvchi-shogirdlariga individual yondashib, birgalikda amaliy tarzda ishlab ko'rsatganlar, bunda o'quvchi o'z ko'zi bilan asarning yaratilish bosqichlarini kuzatgan. O'sha davr rassomlari o'zlarining ilmiy qo'lyozmalarida ta'limda bu masalalar prinsiplarini qo'llash va uning samarasi haqida qisman yoritib o'tganlar. Masalan, Chennino Chennini shunday yozgan: "Ko'pchilik tasviriy san'atni ustozsiz o'rgandik desalar, sen ularga aslo ishonma, misol tariqasida shu kitobchani o'qib chiq; kechayu-kunduz o'qib o'rgansang ham, ammo ustoz ko'rmasang, o'rganib o'qib bo'lganingdan so'ng ham sen ustozlar qatoridan joy ololmaysan". Yuqorida ustozning keltirilgan fikridan xulosa qilsak, o'rganuvchi talaba qachonki amaliy tarzda tasviriy san'atning qonun-qoidalarini ko'rsatgina nazariyani hayotiy faoliyatida qo'llay olishi mumkinligi anglashiladi. Bu esa ustozdan har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini tashkil etishni talab etadi. Tarixiy manbalarga murojaat qilganimizda, mashg'ulotlar jarayonida talabalarga differensial yondashuv asosida tasviriy san'at mazmunini o'qitish rassom-pedagoglarning asosiy maqsadiga aylanganini ko'ramiz.

Differensial yondashuv masalasi asosan ikki yo'nalishda olib borilgan: birinchisi – masalani pedagog-rassom amaliy namoyon etib, og'zaki tushuntirib berishi, ikkinchisi – o'quvchiga amaliy ko'rsatmasdan, faqat og'zaki tushuntirish va izohlash orqali amalga oshirilishi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Chunki u yoki bu yondashuvda o'quvchining qobiliyati va layoqati hisobga olingan hamda tushuntirilayotgan materialning murakkabligiga bog'liq bo'lgan.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G. Kershenshteyner, rus san'atshunosi A. Bakushinskiy, amerikalik J. Dyupyui faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda, bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak, ular erkin ijod qilishlari lozim, ularning ijodiga aralashib ta'limni tezlashtirib bo'lmaydi [5: 39-b.]. Shuning uchun ham yosh xususiyatiga mos holda bosqichma-bosqich topshiriqlarni o'zlashtirib borish zarur hisoblanadi. Har bir bosqichda bolaning fikrlari va his-tuyg'ularini hisobga olib, o'zlashtirish jarayonini nazoratga olish muhimdir.



Ayrim tadqiqotchilar bolalarning ijodiga rahbarlik qilish yoki aralashishni hatto “jinoyat” deb baholaganlar. Keyinchalik bu g’oya “Erkin tarbiya” nomini oldi. Tasviriy san’at fani bo’yicha o’quvchilarni tabaqalashtirib o’qitishning respublikamiz ta’lim tizimiga mos keladigan dastlabki ilmiy-nazariy asoslarining ilk kurtaklari pedagogika fanlari doktori, professor R. Hasanov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o’z ifodasini topgan.

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta’limga doir angliyalik B. Kerollning o’qitish modeliga asoslangan B. Blumning pedagogik qarashlari mutaxassislar e’tiborini tortmoqda. Mazkur nazariyaga ko’ra, aqliy jihatdan qobiliyatli yoki sust o’zlashtiruvchi o’quvchilarni tabaqalashtirib o’qitishning asosini ta’lim uchun ajratilgan vaqt hal qiladi. Hamma gap bolalarning har biri bilan alohida ishlash va ularga e’tiborni kuchaytirishda, deb hisoblanadi.

“Agar o’quvchilarning har biriga yetarlicha vaqt ajratilib, ular bilan individual shug’ullanilsa, har qanday bolani puxta o’zlashtiruvchilar qatoriga olib chiqish mumkin”, deb hisoblaydi B. Blum. Fransiya umumiy o’rta ta’lim maktablarida individual o’qitish o’ziga xos ravishda rivojlanmoqda. Mamlakat pedagog-olimlarining fikrlariga qaraganda, bunday ta’lim turining Fransiyada taraqqiy etishiga asosiy sabab o’quv materiallarining ko’pchilik o’quvchilar tomonidan yaxshi o’zlashtirilmayotganligidir.

Taniqli fransuz pedagogi R. Dottrens tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarda o’quvchilarning aqliy qobiliyatlari, ish tezligi, ritmi, charchoqqa bardoshlilik, chidamliligi hamda qiziqishlari hisobga olinib, individual o’qitishga alohida e’tibor berilgan. Ayrim hollarda topshiriqlarni o’quvchilarning o’zlari tanlashlariga ham imkon beriladi. Loyiha muallifi o’quvchilarning individual ishlariga rahbarlik qilishning ikki yo’lini sinovdan o’tkazgan: ulardan biri minimum dasturni amalga oshirishga qaratilgan bo’lsa, ikkinchisi qobiliyatli o’quvchilarning bilimlarini boyitish, ularni murakkab va ijodiy topshiriqlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Ma’lumki, pedagogikada ta’limni individuallashtirish va differensiallashtirish tushunchalari ko’pincha birgalikda qo’llanadi. Ba’zi manbalarda ushbu tushunchalar umumiy holda ham ishlatiladi.

I. Unt bu tushunchalarni pedagogik nuqtayi nazardan farqlab ko’rsatadi. Uningcha, ta’limni individuallashtirish – o’qitish jarayonida o’quvchilarning qaysi xususiyati bo’lishidan qat’i nazar, ta’limning barcha shakl va metodlarida ularning individual xususiyatlarini inobatga olishdir. Ta’limni differensiallashtirish esa o’quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishning shunday shakli, unda o’quvchilar ma’lum xususiyatlariga ko’ra guruhlariga ajratiladi va alohida tahsil oladilar, odatda bunday ta’lim jarayoni bir nechta o’quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.

## XULOSA

Differensial ta’lim – bu talabalarning mashg’ulotlar jarayonida muhim bo’lgan umumiy qonun-qoidalariga ko’ra ajratilgan bir xil guruhlar bilan olib boriladigan ta’limning tashkiliy shakli bo’lib, talabalarning muhim didaktik xususiyatlariga ko’ra tabaqalashtirilgan guruhlar uchun o’quv materialini moslashtirishni nazarda tutuvchi pedagogik tizim bo’limidir. Tasviriy san’atda differensial ta’lim tushunchasi ta’limga differensial yondashuv muammosini o’rganishni taqozo etadi.

Tasviriy san’at mashg’ulotlari jarayonida differensial yondashuv – bu turli tipdagi guruhlar uchun ularning kontingentiga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadida turlicha ta’lim vaziyatini yaratish, ya’ni tasviriy san’atning boshqa fanlardan farqli jihatlarini ham inobatga olgan holda o’quv, metodik, boshqaruv, pedagogik va psixologik mashg’ulotlar tizimini tashkil etishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4688-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4795687>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 2-mart kuni xalq ta’limi tizimidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag’ishlangan yig’ilishi. // O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz>
3. Abdirasilov S. “Tasviriy san’at va o’qitish metodikasi”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 30-31-b.
4. Абдуллаев Н. У. Санъат тарихи: Икки жилдлиқ. / Т. К. Қўзиёв умумий таҳрири остида. – Т.: “Санъат”, 2001. – 152-192-б.
5. Bulatov S.S. Ustoz va shogird odobi. – T., 2012. Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik tavsiyanoma. – 210-b.
6. Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 130-b.
7. Hasanov R. Tabaqalashtirilgan ta’lim: muammo va yechim. // Ma’rifat gazetasi. 2003-yil 15-noyabr. – 8-9-b.
8. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – Toshkent: Fan, 1997. – 256-b.
9. Chennino Chennini. “Traktat o jivopisi”. – M.: Prosvesheniye, 1933. – 76-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №2(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.